

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

46 059

121,7 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

44 178

120,3 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilda)


3 644

167,0 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- iyun holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oyida)

5




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,5 foizga oshdi**




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliq xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonasi va
tashkilotlarning
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan **22,4** foizga
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 9,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,4 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 123,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 107,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 103,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 106,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,8** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **50,0** foizga oshdi



Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **0,9** foizga oshdi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

10



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

11

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

904



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

32



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

65



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



144 yashash
bo'yicha xizmatlar



2 163
Oziq-ovqat
mahsulotlari va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar


2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2,3 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,1 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 132,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,8 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 118,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,2 %) o'sishidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

12




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)


13




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,8 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



0,2
foizga oshdi




Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)


14




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,7 foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



12,2
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




25,0
foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



*O'tgan yilga
nisbatan
16,7 foizga oshdi*



Xususiy korxonalar




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1-iyun holatiga ko'ra 5,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 mingtaga yoki 142,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 mingtaga yoki 141,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 591 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 280 taga yoki 190,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1-iyunholatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1-iyun holatiga ko'ra 21,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 mingtaga yoki 128,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20,8 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,4 mingtaga yoki 127,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2,3 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 898 taga yoki 164,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra 493 tani tashkil etib, ulardan 482 tasi yoki 97,7 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 49 taga yoki 111,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida viloyatimizda 32 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)



Farg'ona viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)


18

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Belorussiya Respublikasi	7	4	3
Ozarbayjon Respublikasi	6	2	4
Qirg'iziston Respublikasi	37	30	7
Qozog'iston Respublikasi	13	11	2
Rossiya Federatsiyasi	113	90	23
Tojikiston Respublikasi	6	5	1
Turkmaniston Respublikasi	1	1	
Ukraina Respublikasi	3	2	1
Armaniston Respublikasi	3	3	

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

19



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	175	225	339	432	482
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2	4	22	27	27
Sanoat	126	159	199	247	269
Qurilish	3	5	7	12	18
Savdo	14	26	58	76	94
Tashish va saqlash	4	4	7	12	14
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8	9	14	15	13
Axborot va aloqa	3	2	4	4	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	6	7	9	9
Boshqa turlar	10	10	21	30	34

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

20

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

21

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Farg'ona viloyati	482	320	162
Oltiariq tumani	19	12	7
Qo'shtepa tumani	8	8	0
Bag'dod tumani	13	9	4
Buvayda tumani	10	7	3
Beshariq tumani	6	4	2
Quva tumani	22	14	8
Uchko'prik tumani	16	12	4
Rishton tumani	15	12	3
So'x tumani	4	3	1
Toshloq tumani	16	10	6
O'zbekiston tumani	23	21	2
Farg'ona tumani	23	13	10
Dang'ara tumani	16	8	8
Furqat tumani	7	4	3
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	163	102	61
Qo'qon shahar	64	40	24
Quvasoy shahar	28	22	6
Marg'ilon shahar	24	18	6

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

22



2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (17,0 %), Qo'qon shahar (12,3 %), Marg'ilon shahar (9,7 %), Uchko'prik tumani (5,2 %), Dang'ara tumani (4,8 %), Oltiariq tumani (4,7 %), Quva tumani (4,7 %), O'zbekiston tumani (4,6 %), Buvayda tumani (4,5 %), Toshloq tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (3,9 %), Bag'dod tumani (3,7 %), Rishton tumani (3,5 %), Beshariq tumani (3,3 %), Quvasoy shahar (3,3 %), Qo'shtepa tumani (3,2 %), Furqat tumani (2,5 %), So'x tumani (2,4 %), Yozyovon tumani (2,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-may oylarida, birlikda)

2021- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (13,6 %), Qo'qon shahar (9,9 %), Marg'ilon shahar (8,1 %), Uchko'prik tumani (5,8 %), Oltiariq tumani (5,8 %), Bag'dod tumani (5,3 %), Farg'ona tumani (5,0 %), Quva tumani (4,9 %), O'zbekiston tumani (4,8 %), Toshloq tumani (4,7 %), Rishton tumani (4,5 %), Buvayda tumani (4,5 %), Dang'ara tumani (4,1 %), Beshariq tumani (3,9 %), Quvasoy shahar (3,9 %), Qo'shtepa tumani (3,6 %), Furqat tumani (2,8 %), Yozyovon tumani (2,6 %), So'x tumani (2,2 %) , hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

23



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy
korxonalarga taqsimlanishi**

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

24



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish etib belgilangan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnomaga tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. At the top, there is a navigation bar with links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. Below the navigation bar, there is a search bar with the placeholder 'Qidirish'. On the left side, there is a sidebar titled 'RASMIY STATISTIKA' containing links to various statistical reports like 'E'lion qilish taqvim', 'Metama'lumotlar', etc. In the center, there is a main content area with a form for searching statistical classifications ('Statistik klassifikatsiyalar') using a code ('STIR'). The form includes fields for entering the code and a button to search ('Qidiruv'). To the right, there is a sidebar titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' listing various resources such as 'Ahollini ro'yxtatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul oishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'onona viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:73 249-87-34**